ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"LOYIHA QURILISH EKSPERT" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Sultanov Sherzod Tuychiboy O‘g‘li
Sana: 18-11-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

222844 - SONLI

Obyekt nomi: Ulug’nor tuman, Shahriobod MFY xududida “LEYLA BUILDING TEAM” MCHJ tomonidan xududida “Ko’p qavatli uy-joylar” bino va inshootlari qurilishi (1-bosqich)	
Buyurtmachi:	“LEYLA BUILDING TEAM” MChJ
Bosh loyihachi:	"ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“LEYLA BUILDING TEAM” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	040835

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Ulug’nor tumani Xokimining 2020 yil 2-noyabr kungi № 337-Q sonli qaroriga asosan 8000.0 kv.metr yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan.

1.2. Andijon viloyati Qurilish bosh boshqarmasining 11.12.2020yildagi 1703-1703217-7378-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi “LEYLA BUILDING TEAM” MCHJ ning 2022 yilda tasdiqlangan loyixa topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “LEYLA BUILDING TEAM” MCHJ tomonidan 2022 yilda berilgan buyurtma xati va loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan shartnoma.

1.5. Obyekt murakkablik toifasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-iyuldagi 424-son qarorining 14.3 Kam qavatli uy-joylar, yotoqxonalr 5 qavatgacha (5-qavati ham) II-toifa ekanligi inobatga olindi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. O’zGashkLITI DUK tomonidan 2020 yilda bajarilgan muxandislik geologik qidiruv ishlari xulosasi.

2.4. Andijon viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2022 yildagi xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 S li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/m²

Shamolning ta’sir kuchi -38 kg/m²

Yozgi xisobiy xavoning issiklik xarorati +33º S.

Maydon seysmikligi 9-balli.

Qurilish iqlimiy mintaqasi – II

Qurilish toifasi - II

3.2. Bosh reja:

Bosh reja asosida “LEYLA BUILDING TEAM” MCHJ tomonidan xududida “Ko’p qavatli uy-joylar” bino va inshootlari qurilishi Ulug’nor tuman, Shahriobod MFY xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Ulug’nor tumani Xokimining 2020 yil 2 noyabr kungi № 337-Q sonli qaroriga asosan 8000.0 kv.metr yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Ob'ekt yer uchastkasi Shimol tomondan maktab xududi bilan. Janub tomondan namunaviy uy-joylar xududi bilan. G‘arb tomondan zax qochirish zovuri bilan, Sharq tomondan mavjud ko‘cha bilan chegaralanadi. Bosh rejaga asosan quyidagi bino va inshootlar joylashgan; loyihaviy 5 qavatli 7 dona blokdan iborat, 1-bosqichda 2 dona turar-joy binolari, bolalar maydonchasi, kichik bog’, YoXB burchagi, avtoturargox, yo`l va yo`laklar, chiqindi saqlash joylari.

Loyixaviy bo’ylama qiyalik yo`l o’qlari bo’ylab 1,4 % dan 3,5 % gacha qabul qilingan.

Maydon qoplamalari quyidagicha loyixalangan:

- yo`laklar, burilib olish maydonlari quyma betonli bordyurli, 20 sm qalinlikdagi shag’al to`shamali asos ustiga 5 sm qalinlikdagi beton to’shama qilib bajarilgan;
- h=5sm qalinlikdagi yuvilgan qum to’shama ustiga h=8sm qalinlikdagi beton plitkali (bruschatka) quyma betonli bordyurli qilib bajarilgan.

Sug’orish tarmog’i:

Sug’orish tarmog’i tuproqli va yig’ma LI-1-BT temirbetonli ariqchalar ko’rinishida bajarilgan. Sug’orish tarmog’i yo’laklar bilan kesishgan joylarda 0,4m o’lchovli asbostsement quvurlar yotqizish orqali amalga oshirilgan.

Ko’kalamzorlashtirish:

Xududda jozibali va mikroklimat xosil qilish maqsadida ko’kalamzorlashtirish ishlari loyixada ko’zda tutilgan. Daraxtlar, bak butalar rang-barangligini va joylashuvini ularning ketma ket o’sishini xisobga olgan xolda joylashtirigan.

Xududdagi yomg`ir va sug'orish suvlari ochiq xoldagi beton lotoklar orqali xududdan tashqariga chiqariladi.

3.3. Me'moriy va konstruktiv echimlari:

“Ko’p qavatli uy-joylar” binosi - 5 qavatli va yerto`lali, to’g’riturtburchak shaklida 7 dona blokdan iborat, 1-bosqichda 2 dona 5 qavatliva yerto’lali xar bir blokda 20 tadan xonadon, Ja’mi xonadonlar 40 dona, xonadonlar 2-3 xonali, poydevor quyma yaxlit temirbeton, M50 markali qorishmada gazablokdan to’ldirilgan, temirbeton o’zakli (pilonali monolit) 1 ta blokni umumiy o’lchami 17.25 x 18.8 m qavat balandligi H=3.0 m.

Binoning 1,2,3,4,5-qavatlar turar-joy, umumiy maydoni 1270.08 m2, yashash maydoni 1145.58 m2 20 ta xonadon joylashgan, 1ta zinapoya katagi, 1 dona lift va holl umumiy maydoni 124.50 m2 dan iborat, yerto`la maydoni 268.21 m2.

Binoda dahliz, xojatxona, yuvinish-cho’milish xonasi, oshxona, umumiy xona va uxlash xonasi, bolalar xonasi joylashgan.

Ichki pardozlash – Xonadon devor va shiftlar 1-qavatli oq suvoqda, pol qismini tekis beton qoplamali, ichki eshiklarsiz burchaklari tekislash ko`zda tutilgan. Tashqi pardozlash - bino fasadi tashqi tomonidan bazalt tolali PPJ plitalari bilan qoplanib va ustki qismi travertin suvoq qilish, sokol «keramagranit» plitka bilan pardozlash ko'zda tutilgan. Oynalar - PVX rusumli plastikdan, eshiklar PVX profildan o'rnatish ko'zda tutilgan.

Binoning fazoviy bikrligi gorizontal yo'nalishda qavatlararo yopmalar bilan birgalikda, bo'ylama yunalishda temirbeton devorlar bilan birgalikda ishlash xisobida bajarilgan.

Binoning konstruktiv echimlari quyidagi tarkibiy elementlardan iborat: Asos va asos devori - B25 rusumli quyma yaxlit temirbetondan. Sokol - B15 rusumli quyma yaxlit temirbetondan. Devorlar - B25 rusumli quyma yaxlit temirbetondan va gazoblokdan. Zinapoyalar - quyma yaxlit temirbetondan. Tom yopma va orayopmalar - quyma temirbetondan. Issiqlik ximoyasi - yumshoq qatlamli, 4 qavatli qoraqog'ozli hamda 80 mm li kattiq mineral vatadan. Eshik, deraza - MDF va PVX rusumli plastikdan. Pol – beton. Parda devor – gazobeton, MK bilan kuchaytirilgan 100mm gazobetondan. Lift shaxtasi - B25 rusumli quyma temir-betondan. Tom - B25 rusumli quyma temir-betondan. Tom qismi – shamollatilmaydigan tekis.

Otmostka - shag'al to'shamali quyma beton qorishmadan.

Bundan tashqari ishchi loyixada:

- yong'inga qarshi gidrantlar o'rnatish;
- muxandislik tarmoqlari;
- bolalar maydonchalari va boshqa xo'jalik xovli qurilmalarini qurish hamda obodonlashtirish ishlarini bajarish ko'zda tutilgan.

Shuning bilan birga, elektr qismi, yong'inga qarshi inventarlar qutisi loyihada ko'zda tutilgan.

Zilzilabardoshlik tadbirlari. G'ishtlik binolarda armaturali temir beton poyaslar xisobga olingan. Beton plitalarda antiseysmik poyaslar xisobga olingan.

Yonginga qarshi tadbirlar. Yong'inni o'chirish uchun yong'inga qarshi rezervuar xisobga olingan. Xududda yong'inni o'chirish shiti mavjud. Bundan tashqari binolarda yong'inga qarshi signalizatsiya, avtomatik yong'inni o'chirish tavsiya qilinadi. Yongin xavsizligi ShNK 2.01.02-04 «Bino va inshootlardagi yong'in xavfsizligi» va ShNK 2.08.02-09 «Jamot binolari va inshootlari» talablari asosida bajarilgan. Loyixada shuningdek, yog'och konstruktsiyalarni antipiren va antiseptik bilan ishlov berish xisobga olinishi kerak.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Issiqlik ta'minoti loyixada ko'rsatilgan qozonxona orqali amalga oshiriladi.

4.2. Suv ta'minoti bo'yicha - Andijon "Suvta'minot" MChJning 2024 yil 11 noyabr kungi № 178-sonli texnik xulosasi.

4.3. Elektr ta'minoti bo'yicha – Andijon viloyati "Andijon xududiy elektr tarmoqlari" AJ Andijon hududiy filiali 2024 yil 13 noyabr kungi №30-31-ul/1389-sonli texnik xulosasi.

4.4. Tashqi yong'inga qarshi tadbir shaxar hududidagi mavjud yong`in gidranti orqali amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati qurilish Bosh boshqarmasi, Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.07.2022 yildagi № 48317 -sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan «Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tar-tibi to'g'risidagi» Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Taqdim etilgan umumiy miqdori 12% QQS bilan 9 366 166,812 ming so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so'ng 1 457 172,332 ming so'm pudratchining boshqa harajatlari ob'ektning xisoblangan qiymatidan chiqarib yuborildi.

7. Xulosalar.

Ishchi loyixa; “Ulug’nor tuman, Shahriobod MFY xududida “LEYLA BUILDING TEAM” MCHJ tomonidan xududida “Ko’p qavatli uy-joylar” bino va inshootlari qurilishi” (Yong`in xavfsizligi va zilzilabardoshligi qismi), taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Ajratilgan maydoni - 8000.0 m2;
Qurilish maydoni - 650.48 m2;
Umumiy maydon - 1538.29 m2;
Yashash maydoni - 1332.81 m2;
Qurilish hajmi - 5772,54 m3;
Me'yoriy mehnat sarfi - 10 228,03 kishi/kun
Joriy narxdagi tavsiyaviy
(boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan - 7 908 994,480 ming.so'm.
12% QQS siz - 7 061 602,214 ming.so'm.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

ShNQ 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

Bosh mutaxassis: A.Abdullayev

Mutaxasislar: S.O’tkirov G.Jalilova K.Matkarimov